IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

SHARIPOV FERUZJON ISOR O'G'LI

WISH/DESIRE-ISTAK/XOHISH KATEGORIYASINI DISKURSDA VOQELANTIRUVCHI VOSITALARNING LINGVOPRAGMATIK TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Namangan – 2025

UDK: 811.111'37'42:008+811.512.133'37'42:008

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

SHARIPOV FERUZJON ISOR O'G'LI

WISH/DESIRE-ISTAK/XOHISH KATEGORIYASINI DISKURSDA VOQELANTIRUVCHI VOSITALARNING LINGVOPRAGMATIK TADQIQI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Namangan – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida **B2025.1.PhD/Fil5833 raqam bilan ro'yxatga olingan**.

Doktorlik dissertatsiyasi Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namsifl.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz)__ manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Karimov Rivojiddin G'ulamjonovich** filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Rasmiy opponentlar:	**Ganiyeva Dildora Azizovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Sidiqov Qosim Abilovich filologiya fanlari nomzodi, professor
Yetakchi tashkilot:	**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "_27_" _dekabr_ kuni soat _9:00_ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan viloyati, Namangan shahri, Davlatobod tumani, "Orzu" MFY, Yoshlik ko'chasi, 100a-uy. Tel.: +998 (69) 442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz).

Dissertatsiya bilan Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ _114_ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Namangan viloyati, Namangan shahri, Davlatobod tumani, "Orzu" MFY, Yoshlik ko'chasi, 100a-uy. Tel.: +998 (69) 442-11-67)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_3_" _dekabr_ kuni tarqatildi.
(2025-yil "_4_" _dekabr_ dagi № _8_ — raqamli reyestr bayonnomasi).

N.T.Dosbayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

I.I.Umrzaqov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.H.Tursunov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

<center>**KIRISH (falsafa doktori (PHD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**</center>

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar til omiliga antroposentrik yondashuv va uning lingvopragmatik jihatlarini yoritishning tarkibiy qismidir. Til, madaniyat va ijtimoiy hayotdagi turli shakl va mazmundagi jarayonlarning o'zaro bog'liqligi o'ziga xos hodisa sifatida o'rganiladi. Antroposentrik paradigmaning mohiyat e'tiboridan kelib chiqqan holda hozirgi bosqichda turli tizimli tillarda milliy-madaniy va umuminsoniy hodisa va qonuniyatlarning tildan foydalanuvchi insonga va u orqali uning tiliga, tilining shakli, ma'nosi va funksional jihatiga ta'sir ko'rsatishini o'rganish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanib bormoqda.

Dunyo tilshunosligida umuminsoniy va milliy xususiyatlarni, shu jumladan shaxslar istak-xohish kategoriyasi va uni voqelantirish usullaridagi umumiy va farqlanuvchi belgi va xususiyatlarni ochib berish, unda tildagi leksik vositalar, grammatik vositalar va nutq mahsulotlarining pragmatik jihatdan guruhlanishi kabi masalalar nazariy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Insonlar istak xohishi ular so'zlashadigan tillar tomonidan yaratilgan dunyoning insoniy manzarasida aks etadi. Ular boshqa til mahsulotlari kabi milliy o'zlikni, milliy birliklar paradigmasini, har bir xalqning dunyoni idrok etishning o'ziga xosligini ko'rsatib beradi[1]. Shu nuqtai nazardan istak-xohish kategoriyasi va uni turli tillarda voqelanish qonuniyatlarini qiyosiy chog'ishtirma planda tadqiq qilish katta nazariy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimiz mustaqil davlat sifatida rivojlanishni boshlagandan beri ilm-fan va milliy madaniyatimizning har bir sohasida jiddiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Bu o'zgarishlar eng avvalo shu kungacha erishilgan ilm-fan yutuqlarini milliy mafkura va milliy istiqlol g'oyalari talablari asosida qayta ko'rib chiqish, umumlashtirish va kelgusida bajarilish lozim bo'lgan ishlarni rejalashtirish jarayonida ko'zga tashlandi. O'zbek tilshunosligida til hozirgi lisoniy jarayonlarning markazida turgan birlik, unda so'zlovchi shaxs va uning istak-xohishi turadi deb qaralmoqda, zero inson istak-xohishini ifoda qilish usuli va vositalari chog'ishtirilayotgan tillarning hozirgi zamondagi modeli sifatida namoyon bo'lmoqda hamda tilning lug'at boyligi va grammatik strukturaning doimiy aloqasi natijasi o'laroq xalq bilan muloqot, odamlarning orzu-intilishlari, dardi-tashvishlari bilan yashash davlat siyosati darajasiga ko'tarilayotgan bugungi kunda biz o'z oldimizga qo'ygan maqsadlarga erisha olamiz[2]. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti ushbu bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida chet tillarni o'rganishni ommaviylashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-sonli "Pedagoglar ta'limi sifatini oshirish va oliy ta'lim muassasalarining pedagog kadrlar tayyorlash faoliyatini yanada

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. https://lex.uz/ru/docs/-6600413 (murojaat qilingan sana va vaqti: 10.03.2024, 12:24).

[2] Mirziyoyev Sh. O'zbekiston matbuot va ommaviy axborot vositalari hodimlarining kasb bayrami munosabati bilan tabrigi. 27/06/2025. https://www.uzdaily.uz/uz/shavkat-mirziyoyev-ommaviy-axborot-vositalari-xodimlarini-kasb-bayrami-bilan-tabrikladi/ (murojaat qilingan sana va vaqti: 10.07.2025, 10:15).

rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 6-sentyabrdagi 498-sonli "Qadimiy yozma manbalarning davlat reestri to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 25-avgustdagi 475-sonli "O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"[3]gi qarorlari va sohaga doir boshqa normativ-me'yoriy hujjatlarda ko'rsatilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-marifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

Tilshunoslikda istak-xohish kategoriyasining semantik, pragmatik va kognitiv xususiyatlarini o'rganish masalasi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlarida muhim yo'nalishlardan biri sifatida shakllangan. Ushbu kategoriya til va tafakkur, nutq va niyat, shaxs va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beruvchi universal semantik tizim sifatida talqin etiladi. Tadqiqotlar tahlili mazkur yo'nalishda ilmiy asoslar mavjudligini ko'rsatsa-da, ingliz va o'zbek tillarining qiyosiy-pragmatik o'rganilishi hali yetarlicha chuqurlashmagan.

Ko'plab xorijiy olimlar tomonidan istak va xohishning ifodalanish mexanizmlari kognitiv va pragmatik yondashuvlar asosida o'rganilgan. Xususan, G.Lakof va M.Jonson[4] istakni kognitiv metafora orqali ifodalanuvchi konsept sifatida tahlil qilganlar. R.Langaker[5] uni kognitiv grammatika doirasida fikr va niyat harakatining struktural modeli sifatida ko'rsatadi. J.Ostin va J.Serl[6] larning nutq aktlari nazariyasi istak-xohishning illokutiv va perlokutiv kuchini aniqlashda metodologik asos bo'lib xizmat qilgan. M.Halidey[7] tilning funksional-semantik tabiatini asoslab, istakning ijtimoiy-pragmatik rolini belgilagan. A.Verzbitska, G.Fokonye va M.Turner[8] ishlarida esa istak-xohish mental model, konseptual xaritalash va madaniy semantika nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Rus olimlari ham bu yo'nalishda semantika, pragmatika va kommunikativ niyat asosida tadqiqotlar olib borilgan. N.D.Arutyunova[9] istakni emotsional-motivatsion kategoriya sifatida ko'rib chiqadi. E.S.Kubryakova[10] uni kognitiv tilshunoslik doirasida tahlil qiladi. V.V.Krasnix[11] istak-xohishni milliy

---

[3] Послание Президента Республики Шавката Мирзиёва Олий Мажлису от 24.01.2020 г. https://president.uz/ru/lists/view/3324 (дата обращения: 31.05.2024 г.).
[4] Lakoff G. & Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P. 112.
[5] Langacker R. Foundations of Cognitive Grammar. – Stanford: Stanford University Press, 1987. – P. 156.
[6] Austin J. L. & Searle J. R. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962. – P. 88.
[7] Halliday M. A. K. An Introduction to Functional Grammar. – London: Arnold, 1985. – P. 203.
[8] Wierzbickam A. Fauconnier G. & Turner M. Cross-Cultural Pragmatics. – Berlin: Mouton de Gruyter, 1991. – P. 200.
[9] Арутюнова Н. Д. Типы языковых значений. – Москва: Наука, 1988. – С. 94.
[10] Кубрякова Э. С. Очерки по когнитивной лингвистике. – Москва: МГУ, 1994. – С. 67.
[11] Красных В. В. Этнопсихолингвистика. – Москва: Гносис, 2001. – С. 132.

mentalitetning tildagi in'ikosi sifatida izohlaydi. Shuningdek, G.S.Stepanov, V.Z.Demyankov va O.N.Seliverstova[12] tadqiqotlarida kommunikativ pragmatika hamda lingvosemantik motivatsiya masalalari chuqur o'rganilgan.

O'zbek tilshunosligida istak-xohish kategoriyasining leksik-semantik, grammatik va pragmatik jihatlari masalasida muhim ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. A.Abduroziqov[13] o'zbek tili pragmalingvistikasi asosida nutq aktlari va illokutiv niyatni tahlil qilgan. S.Utmanova[14] o'zbek tili semantikasida niyat, istak va xohish ifodalarining grammatik shakllanishini o'rgangan. G.Raximova[15] istak-xohish ifodalarini lingvomadaniy tafovut va gender omillari kontekstida tahlil etgan. N.Uvarova[16] esa madaniy konnotatsiyalar orqali istakni ifodalovchi birliklarning kommunikativ xususiyatlarini o'rganib, ularning ijtimoiy diskurslardagi funksiyasini ochib bergan.

Yuqoridagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, istak-xohish kategoriyasi xalqaro tilshunoslikda kognitiv, semantik, va pragmatik yondashuvlarda izchil tahlil qilingan bo'lsa-da, ingliz va o'zbek tillarining lingvopragmatik qiyosiy tahlili deyarli o'rganilmagan. Mazkur dissertatsiyada ushbu ilmiy bo'shliq to'ldirilib, WISH/DESIRE – ISTAK/XOHISH kategoriyasining semantik, grammatik va pragmatik mexanizmlari hamda madaniy tafakkurdagi konseptual talqini chuqur yoritiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy tadqiqot muasssasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasining "Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va chet tillar o'qitishning dolzarb muammolari" mavzusidagi kompleks ilmiy tadqiqotlar rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o'zbek tillarida WISH/DESIRE – ISTAK/XOHISH kategoriyasining leksiko-semantik, morfosintaktik va pragmatik xususiyatlarini chog'ishtirma tahlil etish hamda uning madaniy va kognitiv omillar bilan bog'liqligini aniqlashdir.

Tadqiqotning vazifalari:

– ingliz va o'zbek tillarida WISH/DESIRE – ISTAK/XOHISH kategoriyasining shakllanishi, leksik-semantik va morfologik xususiyatlarini aniqlash, bu kategoriyaning grammatik-struktural modellarini (yasama so'zlar, birikmalar, modal konstruktsiyalar) tahlil qilish hamda ularning har ikki til leksik tizimidagi o'rnini belgilash.

– istak-xohish ifodalarining diskursiy kontekstda voqealanish mexanizmini va ularning pragmalingvistik funksiyalarini tahlil qilish, xususan, rasmiy, norasmiy, diniy va media diskurslarda ushbu kategoriyaning illokutiv (niyat ifodalovchi) va perlokutiv (ta'sir ko'rsatuvchi) kuchlarini aniqlash.

---

[12] Демьянков В. З. Селиверстова О. Н. & Степанов Г. С. Лингвосемантические и прагматические исследования: избранные труды. – Москва: Языки славянской культуры, 2007. – С. 45.
[13] Abduroziqov A. O'zbek tilida pragmalingvistik birliklar. – Toshkent: Fan, 2010. – B. 57.
[14] Utmanova S. O'zbek tili semantikasida niyat va istak ifodasi. – Samarqand, 2015. – B. 89.
[15] Raximova G. O'zbek tilida lingvomadaniy tafovutlar. – Namangan, 2018. – B. 102.
[16] Uvarova N. Madaniy semantika va kommunikativ niyat. – Toshkent, 2020. – B. 74.

– madaniy va gender omillarning istak-xohish ifodalari tizimiga ta'sirini qiyosiy-pragmatik nuqtai nazardan o'rganish, ingliz va o'zbek tillarida ayollar hamda erkaklar nutqida istak-xohishning emotsional, xushmuomala, bilvosita va deklarativ shakllarda ifodalanish strategiyalarini aniqlash.

– ingliz va o'zbek tillari materiali asosida istak-xohish kategoriyasining lingvopragmatik modelini ishlab chiqish, ushbu model orqali til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmini tizimli tarzda ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o'zbek tillarida WISH/DESIRE – ISTAK/XOHISH kategoriyasini ifodalovchi til birliklari, ya'ni ushbu ma'noni anglatuvchi leksik, morfologik, sintaktik va pragmatik vositalar tizimi olingan.

Tadqiqot predmetini ingliz va o'zbek tilida WISH/DESIRE-ISTAK/XOHISH kategoriyasini ifoda etuvchi til birliklarining struktrual, semantik, pragmalingvistik va lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda komponent tahlil, tavsiflovchi, qiyosiy-chog'ishtirma, kontekstual, statistik hamda lingvopragmatik metodlardan foydalanildi. Ushbu yondashuvlar tildagi istak/xohish kategoriyasining semantik, grammatik va kommunikativ xususiyatlarini aniqlash, ularning diskursiy kontekstdagi funksional va ijtimoiy-pragmatik jihatlarini tahlil etish imkonini berdi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

–ingliz va o'zbek tillaridagi WISH/DESIRE – ISTAK/XOHISH kategoriyasi birinchi marotaba leksik-semantik, morfologik va pragmatik darajalarda kompleks tahlil qilindi. Ushbu kategoriyaning semantik yadrosi, grammatik modellari va kontekstual funksiyalari aniqlanib, har ikki tildagi istak-xohish ma'nosining struktur-semantik maydoni aniqlangan;

–istak-xohish ifodalarining diskursiy kontekstga bog'liq pragmatik o'zgaruvchanlik mexanizmi ilk bor tizimli tahlil qilindi. Rasmiy, norasmiy, diniy va media diskurslarda ushbu birliklarning illokutiv va perlokutiv kuchlari aniqlanib, nutq aktlari nazariyasiga asoslangan kommunikativ-funksional model ishlab chiqilgan;

–gender va madaniy tafovutlarning istak-xohish ifodalariga ta'siri qiyosiy-pragmatik nuqtai nazardan tadqiq qilindi. Ayollar va erkaklar nutqidagi bilvosita va to'g'ridan-to'g'ri ifoda strategiyalari aniqlanib, ularning madaniy va ijtimoiy psixologik omillar bilan bog'liq ekani isbotlangan;

–ingliz va o'zbek tillariga xos lingvopragmatik model ishlab chiqildi. Modelda istak-xohish kategoriyasining til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi interkognitiv aloqalari tizimli yoritilib, desirativ konseptning universal va milliy xususiyatlari nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ingliz va o'zbek tillarida WISH/DESIRE – ISTAK/XOHISH kategoriyasi hamda uni ifodalovchi til birliklarining umumiy va farqli xususiyatlari, matn doirasida faollashuviga ta'sir etuvchi omillar, madaniy voqealantirilishi va semantik-pragmatik yuklari aniqlab berilgan;

Ingliz va o'zbek tillaridagi WISH/DESIRE – ISTAK/XOHISH kategoriyasini ifodalovchi birliklarning insonning til orqali aks ettirilgan olam manzarasidagi roli

o'rganilib, lingvopragmatik yondashuv asosida ularning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari ko'rsatildi hamda har ikki til va madaniyatda faol gavdalantiruvchi vositalar sifatida namoyon bo'lishi amaliy jihatdan muhim natija sifatida belgilangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan uslubiy yondashuvlarning ilmiy asoslanganligi, foydalanilgan nazariy manbalarining akademik jihatdan tan olingan ishonchli adabiyotlarga tayanganligi, tahlilga jalb etilgan til materiallarining yetarli hajm va xilma-xillikka egaligi, ushbu yo'nalishda ilgari o'tkazilgan ilmiy ishlar tajribasiga tayangan holda olib borilganligi, tadqiqot natijalarining dissertatsiya ishining nazariy-metodologik asoslariga muvofiqligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotda sinovdan o'tkazilgani hamda tegishli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan ta'minlanadi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati:

Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati o'tkazilgan tahlilning va ularning xulosalarini qo'llash orqali aniqlanadi, ular WISH/DESIRE-ISTAK/XOHISH kategoriyasi (konsepti) ni kelajakda shu jumladan boshqa tillar materiallari asosida chuqurroq o'rganishni rivojlantirish imkonini beradi va nazariy ma'lumot lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv tilshunoslik, qiyosiy tipologik leksikologiya, frazeologiya, lingvopragmatika, stilistika resurslarini to'ldiradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ishda tavsiya qilingan tadqiqot materiallari va natijalar oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan bir qancha asosiy fanlardan darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishda, maxsus kurslarni o'qitish borasida, bitiruv malakaviy ishlari va magistrlik dissertatsiyalari tayyorlash borasida, turli hajm va maqsaddagi tarjima va izohli lug'atlar yaratishda, shuningdek, ingliz va o'zbek tillari bo'yicha kelajak mutaxassislarning nazariy bilimlari bilan amaliy ko'nikmalari shakllantirish va rivojlantirishda foydalanishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot davomida aniqlangan lingvopragmatik vositalar, istak/xohish ifodalovchi birliklarning diskursdagi roli va funksional xususiyatlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Tadqiqotda ingliz va o'zbek tillaridagi "WISH/DESIRE – ISTAK/XOHISH xohish kategoriyasini diskursda voqelantiruvchi vositalarning lingvopragmatik tadqiqi (ingliz va o'zbek tillari misolida)" mavzusida yozilgan dissertatsiya ilmiy natijalaridan ba'zi ko'rsatuvlarning ssenariylarini tayyorlashda foydalanildi (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi 2024-yil 12-noyabr № 06-29-731 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, WISH/DESIRE – ISTAK/XOHISH kategoriyasini aks ettiruvchi til birliklarini lisoniy-ma'daniy xususiyatlarini baholash natijasida WISH/DESIRE-ISTAK/XOHISH kategoriyasining chog'ishtirilayotgan tillardagi umumiy va farqli belgilari aniqlanganligi orqali asoslanganligi haqida xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etildi;

Tadqiqotda ingliz va o'zbek tillaridagi badiiy diskursda til birliklarining lisoniy-madaniy, pragmatik jihatdan ochib berish chog'ishtiralayotgan tillarda WISH/DESIRE-ISTAK/XOHISH kategoriyasining emotsional holatini aniqlovchi lingvistik va extralingvistik omillar ilmiy dalillangan (O'zbekiston Respublikasi

Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi 2025-yil 27-maydagi № 1406-3203-08 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu ilmiy natijalar lingvistik me'yorlarga moslashtirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu yondashuv Ilmiy-tadqiqot va ta'lim sohalarida yangi imkoniyatlarni yaratadi va ochib berilgan yangiliklar va ilmiy natijalardan mazkur fundamental loyiha ishlanmalarida foydalanildi;

Tadqiqotda "WISH/DESIRE – ISTAK/XOHISH kategoriyasi dunyoning ingliz va o'zbek lisoniy manzarasida bir-biriga o'xshash bo'lgan komponent va ma'nolariga egaligi hamda dunyoning lisoniy manzarasida esa har bir xalqning o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanishi dalillangan (O'zbekistion yozuvchilar uyushmasi 2025 yil 23-oktabrdagi № 01-06/995 sonli ma'lumotnmasi). Natijada, ingliz va o'zbek tillaridagi "WISH/DESIRE – ISTAK/XOHISH kategoriyasini anglatuvchi til birliklarining matnda faolashtiruvchi ta'minlaydigan omillar belgilandi va dunyoning ingliz va o'zbek olam lisoniy manzarasida "WISH/ DESIRE – ISTAK/XOHISH" kategoriyalarini voqelantiruvchi til birliklarning faol gavdalantiruvchilar sifatida aniqlandi;

Tadqiqotda ingliz va o'zbek tillaridagi "WISH/DESIRE – ISTAK/XOHISH kategoriyasini diskursda voqelantiruvchi vositalarning lingvopragmatik tadqiqi (ingliz va o'zbek tillari misolida)" mavzusida yozilgan dissertatsiyasi Qarshi davlat universitetida 2021-20023 yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21GR-3181 "Reinforcing English Language competence at Karshi State University" nomli xalqaro grant loyihasi doirasida foydalanildi (Qarshi davlat universiteti 2025 yil 3-noyabragi № 04/6062 sonli ma'lumotnmasi). Jumladan, mazkur tadqiqot ish doirasida WISH/DESIRE – ISTAK/XOHISH kategoriyasini diskursda voqelantiruvchi vositalarning tizim xarakteriga ega bo'lgan muayyan bir statusga ega ekanligi va ularning umumlingvistik xarakteriga ega bo'lgan kategoriya ekanligi asoslab berilgan. Natijada, ingliz va o'zbek tillaridagi "WISH/DESIRE – ISTAK/XOHISH kategoriyasini ifoda qiluvchi til vositalarning tizim xarakteriga ega bo'lgan kategoriya ekanligi asoslab berilgan bo'lib, tahliliy fikrlar va nazariy xulosalardan loyiha doirasida samarali foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy mazmuni va natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola (5 ta Respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda), 2 ta xalqaro va 2 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 152 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan va muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan; ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan; tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan. Shuningdek, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Antroposentrizm va konseptual kategoriyalarning nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida antroposentrik paradigmaning shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda tilshunoslikdagi asosiy tamoyillari yoritilgan. Tilning inson markazidagi mohiyatini ochib berishda V. fon Gumboldt, E.Sapir, B.L.Uorf, A.A.Potebnya, E.S.Kubryakova kabi olimlarning konseptual g'oyalari asos qilib olingan va tushuncha kategoriyasi, funksional-semantik kategoriya, grammatik-leksik maydon kabi nazariy tushunchalarning mohiyati tahlil qilinib, ularning istak/xohish kategoriyasi bilan aloqasi ochib berilgan. Bobda shuningdek antroposentrizm, kognitivlik, funksionallik va madaniylik tamoyillari orqali istak/xohish kategoriyasining inson tafakkuri bilan bog'liqligi asoslab berilgan. Ingliz tilidagi *I wish*, *Would you mind...?* kabi birliklar hamda o'zbek tilidagi *Xudo xohlasa*, *Omad yor bo'lsin* kabi ifodalar orqali madaniyatlararo semantik moslik tahlil qilingan.

Mazkur bobning **"Tilshunoslikda antroposentrik paradigma va uning rivojlanish bosqichlari"** nomli birinchi faslida zamonaviy tilshunoslikda inson omilining markaziy o'rnini belgilovchi yondashuv sifatida shakllangan antroposentrik paradigmaning ilmiy asoslari tahlil qilinadi. Antroposentrizm til tizimini shunchaki grammatik yoki struktur hodisa emas, balki inson tafakkuri, idroki va ijtimoiy tajribasining ifodasi sifatida talqin etadi. Shu ma'noda, tildagi istak, xohish, niyat kabi sub'ektiv holatlar tilning semantik hamda psixologik qatlamlari orqali voqelanishini ko'rsatadi.

Antroposentrik yondashuvning ildizlari Vilgelm Gumboldtning "Til – xalq ruhining in'ikosi" degan mashhur g'oyasiga borib taqaladi. Gumboldtga ko'ra, til inson tafakkurining shakli va dunyoqarashni modellashtiruvchi asosiy vositadir[17]. Shu nuqtai nazardan, har bir til o'z millatining ruhiy dunyosi, hissiy tajribasi va konseptual dunyoqarashini aks ettiradi. A.A.Potebnya esa til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aniqlab, tilni "fikrning tashqi shakli" sifatida talqin etgan[18]. Keyinchalik bu g'oyalar E.Sapir va B.Uorf tomonidan rivojlantirilib, ularning lingvistik nisbiylik nazariyasida tilning konseptual kategoriyalari milliy tafakkur, madaniyat va ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq ekanligi isbotlandi[19]. Ular tilni "dunyoqarashning modeli" sifatida izohlab, insonning fikrlash usuli, qadriyatlari va tajribasi o'z tili orqali shakllanishini ta'kidladilar. Shu tariqa,

---

[17] Humboldt W. von. Über die Verschiedenheit des menschlichen Sprachbaues und ihren Einfluss auf die geistige Entwickelung des Menschengeschlechts. – Berlin: Königliche Akademie der Wissenschaften, 1836. – S. 58.

[18] Потебня А. А. Мысль и язык. Избранные работы. – М.: Издательство Юрайт, 2025. – С. 238.

[19] Sapir E. Language: An Introduction to the Study of Speech. – New York: Harcourt, 1921; Whorf, B. L. Language, Thought and Reality. – Cambridge: MIT Press, 1956. – P. 136.

tilshunoslikda inson omiliga asoslangan yangi paradigma – antroposentrik yondashuv shakllandi. Bu yondashuv tildagi istak, xohish, niyat, his-tuyg'u, maqsad kabi psixolingvistik va kognitiv kategoriyalarni o'rganish uchun ilmiy asos yaratdi.

Demak, antroposentrik paradigma tilni inson faoliyatining dinamik modeli sifatida talqin etib, tilshunoslikda yangi metodologik burilishni yuzaga keltirdi. Endilikda til insonning ruhiy olami, ijtimoiy o'rni va madaniy qadriyatlari bilan bir butun tizimda tahlil qilinmoqda. Bu yondashuv tilshunoslikni kognitiv, sotsiolingvistik va pragmatik yo'nalishlar bilan integratsiyalashga xizmat qildi. Shu bois, antroposentrik paradigma hozirgi tilshunoslikda lingvokognitiv, psixopragmatik va madaniyatshunoslik yondashuvlarining nazariy poydevorini tashkil etadi.

"Kategoriyal tushunchalarning nazariy va lingvopragmatik talqinlari" nomli ikkinchi faslda tilshunoslik tarixida "kategoriya" tushunchasi qadimdan ilmiy muhokama obyekti bo'lib kelgani, uning falsafiy ildizlari Aristotelning "Kategoriyalar" asarida mavjudlikning umumiy toifalarini tasniflash vositasi sifatida izohlangan g'oyalariga borib taqalashi tahlil qilindi. Ushbu konsepsiya keyinchalik grammatika, mantiq va semantika fanlarida markaziy termin sifatida shakllanib, til birliklarini turkumlashda metodologik asos yaratdi[20]. XX asrga kelib, tilshunoslik paradigmasining o'zgarishi natijasida kategoriya tushunchasi faqat grammatik doiradan chiqib, semantik, funksional va kognitiv omillarni ham o'z ichiga olgan murakkab hodisaga aylandi. Shu nuqtadan boshlab, kategoriya inson tafakkuri, madaniy qadriyatlari va kommunikativ faoliyatini ifodalovchi integral birlik sifatida talqin etila boshlandi.

N.Chomskiy formal yondashuvlarda kategoriya tushunchasi til tizimining differensial belgilar tizimi sifatida izohlanib, son, shaxs va zamon kabi oppozitsiyalar asosiy grammatik birliklar sifatida baholangan[21]. N.Chomskiyning generativ grammatika nazariyasi esa kategoriyani "universal grammatika"ning tug'ma komponenti sifatida qarab, ularning ijtimoiy omillardan mustaqil holda ishlashini ko'rsatdi[22]. Shu bilan birga, funksional-semantik yondashuv kategoriyalarni tilning kommunikativ vazifalari bilan bog'liq holda tahlil qildi, tilni ijtimoiy-semiotik tizim sifatida talqin etdi. J.Ostin va J.Serl tomonidan ilgari surilgan nutq aktlari nazariyasi esa kategoriyani pragmatik voqelik bilan bog'lab, illokutiv kuch va perlokutiv ta'sirni ajratdi[23]. Bu jarayon kategoriya tushunchasining lingvopragmatik talqinini yuzaga keltirdi. U faqat grammatik shakl emas, balki real kommunikativ faoliyatdagi ma'no va ta'sir mexanizmlarini belgilovchi birlik sifatida tushunila boshlandi.

Dissertatsiyamiz doirasida kategoriya tushunchasi uch qatlamli model asosida tahlil qilindi ya'ni, formal, semantik va pragmatik darajalar bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida ko'riladi. Formal qatlam tildagi struktur birliklarni, semantik qatlam

---

[20] Aristotle. Categories. – Oxford: Clarendon Press, 1908. – P. 8.
[21] Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge, MA: MIT Press, 1965. – P. 37.
[22] Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge, MA: MIT Press, 1965.– P. 39.
[23] Austin J. L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962. – P. 98; Searle, J. R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – P. 38.

ma'no tizimini, pragmatik qatlam esa nutqiy niyat va ijtimoiy kontekstni aks ettiradi. Ayniqsa, WISH/DESIRE – ISTAK/XOHISH kategoriyasi ushbu uch qatlamning uyg'unlashgan shakli bo'lib, u tilning kognitiv, madaniy va kommunikativ mohiyatini mujassamlashtiradi. Ingliz, rus va o'zbek tillarida bu kategoriya turlicha ifodalanadi: ingliz tilida individualistik, rus tilida emotsional-ekspressiv, o'zbek tilida esa ijtimoiy-iyerarxiya va diniy ramziy konnotatsiyalar bilan boyigan. Shu bois, kategoriya lingvopragmatik kontekstda universal hodisa sifatida namoyon bo'lsa-da, har bir til va madaniyatda o'ziga xos milliy semantik rangga ega bo'ladi.

Bobning uchinchi faslida istak/xohish kategoriyasining konseptual mazmuni va lingvistik statusi tadqiqotga tortildi. Til tizimida istak/xohish kategoriyasi insonning ichki ruhiy holati, emotsional kechinmasi va niyatining ifodasi sifatida o'ziga xos konseptual tuzilmani tashkil etadi. U kognitiv jarayonlarning markazida turib, shaxsning motivatsiyasi, ehtiyoji va kommunikativ niyatini til orqali namoyon etadi. Mazkur kategoriya tilshunoslikda, xususan, semantik, kognitiv va pragmatik yo'nalishlar kesimida tahlil etilib, inson tafakkurining universalligini aks ettiruvchi konseptual birlik sifatida qaraladi. G.Lakof va Jonsonlarning konseptual metafora nazariyasiga ko'ra, istak inson tajribasining markaziy elementi bo'lib, "harakat", "yo'l", "maqsad" kabi konseptual metaforalar orqali ifodalanadi[24]. Shu sababli "istak/xohish" lingvistik hodisa sifatida nafaqat grammatik, balki konseptual kategoriya tusini oladi.

Mazkur faslda istak/xohish kategoriyasining semantik yadrosi turli tildagi leksik birliklar asosida tahlil qilinadi. Ingliz tilida "wish", "want", "desire", "hope" so'zlari orzu, istak va niyatning turli darajalarini bildiradi, o'zbek tilida esa "xohlamoq", "istamoq", "tilamoq", "niyat qilmoq" kabi birliklar semantik jihatdan bir-biriga yaqin, biroq pragmatik nuqtai nazardan farqlanadi. Kognitiv yondashuv doirasida istakning lingvistik statusi energiya-konsept sifatida izohlanadi ya'ni, u voqelikning emas, balki inson ongidagi potentsial harakat holatini bildiradi. Shuningdek, bu kategoriya pragmatik nuqtai nazardan kommunikativ niyatni ifodalab, subyektning so'zlovchi sifatidagi ijtimoiy maqomini ko'rsatadi.

Tahlilimizga ko'ra, istak/xohish kategoriyasi tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning markaziy konseptlaridan biri sifatida qaraladi. U shaxsning ehtiyoji, niyati, hissi va qadriyatlarini aks ettiradi. Mazkur kategoriya universallikka ega bo'lishiga qaramay, har bir madaniyatda o'ziga xos semantik tus oladi. Ingliz tilida individuallik, o'zbek tilida esa ijtimoiy bag'rikenglik va diniy qadriyatlar bilan boyigan. Shu sababli, istak/xohish kategoriyasining konseptual mazmuni va lingvistik statusi uning madaniy-kognitiv mohiyatini to'liq ochib beradi hamda keyingi boblarda modallik, lingvomadaniy va pragmatik tahlil uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot ishimizning ikkinchi bobi "**Istak/xohish kategoriyasining modallik va milliy-madaniy talqini**" deb nomlangan bo'lib mazkur bobda istak/xohish kategoriyasining modallik, grammatik hamda milliy-madaniy ifodalanish mexanizmlari tahlil etildi. Bu bobda tilshunoslikdagi modallik

---

[24] Lakoff G. & Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P. 57.

nazariyasi asosida istak va xohishning semantik yadro sifatidagi o'rni ochib beriladi. Ingliz va o'zbek tillari qiyosida modallikning grammatik shakllari, shuningdek, diniy, madaniy va ijtimoiy konnotatsiyalar bilan bog'liq xususiyatlari tahlil qilindi va istak/xohish kategoriyasi universallik bilan bir qatorda, milliy-madaniy tafovutlarga ham ega ekani asoslandi.

Mazkur bobning **"Ingliz va o'zbek tillarida istak/xohish kategoriyasining modallik va grammatik ifodasi"** deb nomlangan faslida modallik kategoriyasining mazkur konseptual birlik bilan o'zaro aloqasi ochib beriladi. Til tizimida modallik shaxsning voqelikka, harakatga yoki holatga bo'lgan munosabatini bildiruvchi universal semantik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, istak/xohish kategoriyasi modallikning semantik yadrosini tashkil etadi. Ingliz tili tizimida u, asosan, yordamchi modal fe'llar *will*, *would*, *may*, *might*, *should*, *could* orqali ifodalanadi, ularning har biri so'zlovchining niyat darajasi, emotsional bahosi yoki ehtimolini bildiradi. O'zbek tilida esa istak/xohishning grammatik ifodasi fe'lning mayl shakllari orqali amalga oshadi. Masalan; "-sa", "-r", "bo'lsa edi", "xohlardim", "nasib etsa" kabi shakllar nutqda istakni ijtimoiy va diniy konnotatsiyalar bilan boyitilgan tarzda ifodalaydi.

Funktsional-semantik yondashuv nuqtai nazaridan modallik va istak/xohish kategoriyalari subyektivlikning turli darajalarini ifodalovchi tizim sifatida qaraladi. Ingliz tilida "wish", "hope", "desire" kabi leksik birliklar bevosita istakni bildiradi; ular "*I wish I could go*", "*May you be happy*" kabi konstruktsiyalarda nutqiy niyatni ifoda etadi. O'zbek tilida esa "Xudo xohlasa", "bo'lsa edi", "nasib etsa" kabi birliklar grammatik shakl bilan bir qatorda madaniy-semantik yuklamaga ega bo'lib, so'zlovchining diniy va ijtimoiy qadriyatlar tizimiga ishora qiladi. M.A.K. Halidey modallikni "tilning ijtimoiy-semiotik tabiati" bilan bog'lab, u orqali subyektning nutqiy pozitsiyasi belgilanadi, deb ta'kidlayd[25]. Shu jihatdan, istak/xohish kategoriyasining modallikdagi ifodasi nafaqat grammatik, balki pragmatik va kognitiv jarayon sifatida ham namoyon bo'ladi. Sh.Safarov esa o'zbek tili misolida modallikni "milliy tafakkurda qadriyat ifodasi" sifatida talqin qilib, uning ijtimoiy omillar bilan uyg'unligini ko'rsatadi[26].

Qiyosiy tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek tillarida istak/xohish kategoriyasi turlicha grammatik mexanizmlar orqali ifodalansa-da, ularning semantik mohiyati o'xshashlik kasb etadi. Ingliz tili modallikni lo'nda, individual niyatlar bilan bog'liq tarzda ifodalaydi, o'zbek tili esa uni jamiyat, diniy qadriyat va ijtimoiy hurmat mezonlari bilan uyg'un holda ko'rsatadi. Demak, istak/xohish kategoriyasi modallik strukturasida semantik, kognitiv va pragmatik qatlamlarning kesishgan nuqtasida joylashgan bo'lib, tilning antropotsentrik mohiyatini ochib beradi. Shu bois, ushbu fasl istak/xohish konseptining grammatik asoslarini tahlil qilish bilan birga, keyingi bo'limlarda uning madaniy va pragmatik talqinini o'rganish uchun nazariy poydevor yaratadi.

---

[25] Halliday M. A. K. An Introduction to Functional Grammar. – London: Edward Arnold, 1985. – P. 35.
[26] Safarov Sh. Til va tafakkur: kognitiv pragmatika masalalari. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 67.

14

Ingliz va o'zbek tillarida istak/xohish kategoriyasining modallik va grammatik ifodalari taqqoslanishi

Ifoda vositasi	Ingliz tili	O'zbek tili	Funksional farq
Modal fe'llar	would, could, may, might, wish	xohlamoq, istamoq, bo'lsa edi	Ingliz tilida grammatik modallik; o'zbek tilida shaxsiy istak bildiruvchi fe'l
Shart mayli	If I could…, I wish I had…	Bo'lsa edi, agar nasib etsa	O'zbek tilida diniy va ezgu semantika kuchliroq
Nutq akti formulalari	Would you mind…, I'd love to…	Iltimos qilaman, Duo qilay	O'zbek tilida ijtimoiy-hurmat aspekti ustun
Frazeologik ifodalar	Fingers crossed	Xudo xohlasa	Ikkisi ham ezgu niyat, ammo diniy asos faqat o'zbekchada mavjud

Yuqoridagi jadvalda ingliz va o'zbek tillarida istak/xohish kategoriyasining modallik va grammatik ifodalari qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijasida har ikki tilning modal tizimi inson istagini ifodalashda umumiy (ezgulik, ehtimollik, niyat) va milliy-xos xususiyatlarni mujassamlashtirishi aniqlanadi. Ingliz tilida "would, could, may, might, wish" kabi birliklar grammatik modallikni bildiradi va so'zlovchining shaxsiy niyatini bilvosita ifodalaydi. O'zbek tilida esa "xohlamoq, istamoq, bo'lsa edi" kabi birliklar semantik jihatdan kuchliroq hissiy tusga ega bo'lib, sub'ektiv istakni to'g'ridan-to'g'ri bildiradi.

Bundan tashqari, shart mayli shakllari har ikki tilda istakning ehtimol yoki umid ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi, biroq o'zbek tilida bu birliklar ko'proq diniy-ezgu semantika bilan boyitilgan: "bo'lsa edi", "nasib etsa", "Xudo xohlasa" kabi konstruktsiyalar xalq tafakkuridagi ma'naviy-axloqiy asoslarni aks ettiradi. Ingliz tilida esa shart konstruktsiyalari ("If I could…", "I wish I had…") ko'proq real bo'lmagan vaziyatdagi orzuni ifodalaydi.

Shuningdek, nutq akti formulalari (masalan, ingliz tilidagi *Would you mind…*, *I'd love to…* hamda o'zbek tilidagi *Iltimos qilaman*, *Duo qilay*) orqali ifoda uslubi o'rtasida farq kuzatiladi. Ingliz tili istakni bevosita aytmaslik orqali xushmuomalalik strategiyasini saqlasa, o'zbek tili madaniyatida hurmat, e'tiqod va ijtimoiy masofani ifoda etish ustunlik qiladi. Frazeologik birliklar darajasida esa (*Fingers crossed ↔ Xudo xohlasa*) har ikkisi ezgu niyatni bildiradi, biroq o'zbekcha variant diniy asosli, kollektiv madaniyatga xosdir. Shu bois, modallik kategoriyasi har ikki tilda bir xil kommunikativ vazifani bajargan holda, turlicha madaniy-semantik maydonlarda namoyon bo'ladi.

Bobimizning **"Istak/xohish kategoriyasining lingvomadaniy talqini va milliy mentalitetni aks ettiruvchi birliklar"** nomli ikkinchi faslida istak/xohish konseptining madaniyatlararo talqini hamda milliy tafakkurdagi o'rni ochib

beriladi. Lingvomadaniy yondashuv til birliklarini faqat grammatik yoki semantik darajada emas, balki xalqning madaniy xotirasi, qadriyatlari va milliy mentaliteti bilan bog'liq holda tahlil qiladi. V.N.Teliya ta'kidlaganidek, til "madaniyatning aksi" bo'lib, unda xalqning emotsional-estetik tajribasi va qadriyatlari mujassam bo'ladi[27]. Shu nuqtai nazardan, istak/xohish kategoriyasi ham milliy o'zlik va dunyoqarashning verbal shakli sifatida ko'riladi. Ingliz tili materialida bu kategoriya asosan individual orzu va shaxsiy motivatsiyani aks ettirsa, o'zbek tilida u ko'proq jamoaviy qadriyatlar, taqdir va diniy ishonch bilan uyg'unlashadi.

Bu bo'limda ingliz va o'zbek tillarida istak/xohish konseptining lingvomadaniy o'ziga xosliklari frazeologik birliklar, til odatlari va madaniy ramzlar asosida tahlil qilingan. Ingliz tilida *"God bless you"*, *"I wish you luck"*, *"Fingers crossed"* kabi iboralar shaxsiy niyat va ishonchni bildirsa, o'zbek tilida *"Omad yor bo'lsin"*, *"Xudo xohlasa"*, *"Nasib etsa"* kabi birliklar taqdir va Olloh irodasiga bo'ysunish holatini ifodalaydi. Vereshchagin va Kostomarovlar ta'kidlaganidek, lingvomadaniy birliklar xalqning mentaliteti va qadriyat tizimini bevosita aks ettiruvchi "madaniyat kodlari" hisoblanadi[28]. O'zbek madaniyatida istak ifodalovchi birliklar odob, duoyi yaxshilik, kattalarga hurmat, diniy in'omlar bilan boyitilgan bo'lsa, ingliz madaniyatida ular individuallik, ijobiy psixologiya va pragmatik samimiyat bilan belgilanadi. Shu tariqa, istak/xohish kategoriyasi milliy o'zlikni belgilovchi semantik indikator sifatida faol ishlaydi. Maslova fikricha, bunday lingvomadaniy birliklar "madaniy arxetiplarni jonlantiruvchi verbal modellardir"[29].

Aniqlashimizcha, istak/xohish kategoriyasi lingvomadaniy darajada xalqning dunyoqarashi, qadriyat tizimi va axloqiy me'yorlarini yoritadi. Ingliz tili materialida bu kategoriya shaxsiy motivatsiya, mustaqillik va realistik niyatni ifodalasa, o'zbek tilida u jamiyatdagi o'zaro hurmat, diniy iymon va ezgulikka yo'naltirilgan qadriyatlarni ifodalaydi. Shu bois, istak/xohish konsepti har ikki tilda ham ijobiy emotsional holatni yaratadi, ammo milliy mentalitet tufayli ularning semantik asoslari farq qiladi. Ushbu bo'limda olib borilgan lingvomadaniy tahlil istak/xohish kategoriyasining nafaqat til tizimidagi, balki xalq ruhiyati va madaniyatidagi o'rnini aniqlash imkonini berdi. Bu xulosa keyingi fasl – istak/xohishning diskursiv-pragmatik tahliliga o'tish uchun zarur nazariy poydevor bo'lib xizmat qildi.

"Istak/xohish kategoriyasining implitsit va eksplitsit shakllari" deb nomlangan uchinchi faslda istak/xohish mazmunining tildagi ifoda darajalari – yashirin (implitsit) va ochiq (eksplitsit) shakllarda namoyon bo'lishi ilmiy tahlil qilinadi. Tilshunoslikda implikatsiya hodisasi semantik va pragmatik jarayon sifatida qaralib, u orqali so'zlovchi ma'lum bir ma'noni to'g'ridan to'g'ri emas, balki kontekst orqali ifodalaydi. H.P.Grays va J.Serl nazariyalariga ko'ra, bu jarayon nutqning illokutiv kuchi va ko'chma ma'no mexanizmlariga asoslanadi[30].

---

[27] Телия В. Н. Русская фразеология: Семантический, прагматический и лингвокулътурологический аспект. – Москва, 1996. – С. 28.

[28] Верешчагин Э. М. & Костомаров В. Г. Язык и кулътура. – Москва: Индрик, 2005. – С. 19.

[29] Маслова В. А. Лингвокултурология. – Москва: Академия, 2004.– С. 44.

[30] Grice H. P. Logic and Conversation. In: Syntax and Semantics, Vol. 3. – New York: Academic Press, 1975. – P. 48.

Shunday qilib, istak/xohish kategoriyasining implitsit shakllari so'zlovchining bilvosita, noaniq, ammo kuchli emotsional niyatini aks ettiradi, eksplitsit shakllar esa aniq va grammatik jihatdan ifodalangan istak yoki orzuni bildiradi.

Tadqiqotimizda ingliz va o'zbek tillarida istak/xohishning implitsit va eksplitsit shakllari qiyosiy jihatdan o'rganildi. Ingliz tilida *"I'd love to"*, *"If only I could"*, *"Let's hope"*, *"You'd better"* kabi konstruktsiyalar kontekst orqali yashirin istakni bildiradi; ularning semantik kuchi bevosita "want" yoki "wish" kabi fe'llarga teng, biroq pragmatik ohangi yumshoqroqdir. O'zbek tilida esa "bo'lsa edi", "nasib etsa", "Xudo xohlasa", "shu ishni qilishga niyat" kabi tuzilmalar istakni bilvosita, diniy yoki axloqiy konnotatsiya orqali bildiradi. E.Kubryakova fikricha, implitsit ma'no "inson ongining kognitiv iqtisodiy mexanizmi" sifatida faoliyat ko'rsatadi[31]. Bu mexanizm orqali istak/xohishni bildiruvchi nutq shakllari ko'p hollarda ijtimoiy etik kontekstga bog'liq tarzda yuzaga chiqadi. Shu bilan birga, eksplitsit shakllarda – masalan, ingliz tilidagi "I want to go", "I wish you luck" yoki o'zbek tilidagi "Men shuni xohlayman", "Omad yor bo'lsin" – ifoda aniq, ochiq va maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi.

Istak/xohish kategoriyasi tildagi implitsit va eksplitsit ifoda darajalari orqali inson tafakkuri, hissiyoti va ijtimoiy munosabatlarini murakkab tarzda namoyon etadi. Implitsit shakllar nutqda noziklik, madaniy muloyimlik va psixologik ehtiyotkorlikni ifodalasa, eksplitsit shakllar shaxsning irodaviy kuchi va aniq kommunikativ maqsadini ko'rsatadi. Ingliz tilida eksplitsit ifoda individual niyat bilan bog'liq bo'lsa, o'zbek tilida u ko'proq ijtimoiy-hurmat va diniy qadriyatlar bilan boyitilgan. Sh.Safarovning ta'kidlashicha, istak/xohish kategoriyasining implitsit va eksplitsit shakllari tilning pragmatik tizimida emotsional, kognitiv va madaniy komponentlarning uyg'unligini ifodalaydi[32].

Dissertatsiyamizning uchinchi bobi **"Istak/xohish kategoriyasining lingvo-pragmatik tahlili"** deb nomlanadi. Mazkur bobda istak/xohish kategoriyasining amaliy nutq jarayonidagi namoyon bo'lish shakllari, ularning leksik-semantik, pragmatik va funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Til hodisalari orasida istak va xohish insonning ichki ruhiy ehtiyoji, kommunikativ niyati hamda madaniy qadriyatlarini eng tabiiy tarzda ifodalovchi kategoriyalardan biri hisoblanadi. Shu bois, bu bobda istak/xohish kategoriyasi antroposentrik yondashuv doirasida, ya'ni insonning nutq faoliyati markazida o'rganiladi. Lingvopragmatik tahlil nafaqat istak/xohishning grammatik shakllarini, balki uning subyektiv, kontekstual va emotsional komponentlarini aniqlashga qaratilgan. Bobning asosiy maqsadi, ingliz va o'zbek tillarida istak/xohish ifodasining lingvopragmatik vositalarini qiyosiy o'rganish, ularning semantik turlari, genderga xos nutqiy farqlari hamda kommunikativ funksiyalarini ochib berishdan iborat.

